

# Tong

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

201  
A  
Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

№ 27 (67244)  
2019-yil 8-iyul



# Yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

## YURTNING MARD O'G'LONLARI




- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qarori bilan «Mard o'g'lon» Davlat mukofotiga sazovor bo'ldik. Bu mukofot zimmamizga yuklangan ulkan mas'uliyat zalvorini teran anglagan holda, yurtimiz, xalqimizning chin ma'nodagi mard o'g'lonlari bo'lishga harakat qilamiz, - deydi buxorolik Doniyor Ismoilov va Shahboz Bafoyev.

2-bet

## PREZIDENTDAN XAT OLDIM

Meni viloyatimizdagi Nurafshon shahrida ochilgan Yoshlar markazidagi tadbirga taklif qilishdi. Bilasizmi, u yerda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sulonov Yurtboshimizning menga yo'llagan javob maktubini o'qib eshittirdi. Bundan tashqari, kompyuter, televizor, planshet va 52 ta kitobdan iborat Prezident bobomning sovg'alari ni topshirishganida barcha menga havas qildi.



2-bet

«...Biz yoshlarning orzu-intilishlari, ilg'or g'oya va tashabbuslarini ro'yoga chiqarish maqsadida boshlagan ishlarimizni nainki davom ettiramiz, balki ularni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'taramiz».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MIRZIYOEVning O'zbekiston yoshlariga yo'llagan bayram tabrigidan

# PREZIDENTDAN XAT OLDIM

**Zilola SHOMURODOVA, Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 35-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi:**

– Bilasizmi, shu kunlarda kim meni ko'rsa, «Prezidentga maktub yozgan qiz» deya havas qilayotganidan boshim osmonda. O'zim ham juda hayronman. Hammasi qachon, qanday qilib bo'ldi-yu, menda shunday baxtli kunga yetdim. Ha, menimcha barchasi birinchi she'r yozgan kunimga borib taqalsa kerak. O'shanda 6 yoshda edim. 8-mart kuni barcha onalarga bildirilgan tabriklarni eshitib, dadajonim «asal qizim, meni ham tabriklab qo'ying», deya hazillashdilar. Shunda men otamni xursand qilay deb she'r yozdim. Shunday qilib, menda she'r yozishga qiziqish paydo bo'ldi. She'riy mashqlarimni esa onam va sinf rahbarim Shahnoza Jo'raqulova ko'rib berardilar. Bir kuni meni iste'dodli bolalar qatori «Indigo» ko'rsatuviga taklif qilishdi. U yerda jurnalist opa Muxtasar Tojimatova bilan tanishib qoldim va ular menga ustozlik qila boshladilar. Men barcha she'riy qoramalarimni daftarchamga yozib, doimo yonimda olib yurardim. Bir kuni deng, maktabimizda direktorimiz Muzaffar aka Ahmadjonov tashabbusiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, yuridik fanlari doktori Akmal Saidov bilan uchrashuv

o'tkazildi. Tadbir tugagach men she'riy daftarchamni hurmatli mehmonimizga uzatdim-da, «Prezidentimizga atab yozgan she'rinni ularga yetkazishni orzu qilardim, shuni siz bobojonimga berib qo'ying», deya iltimos qildim. Ular menga va'da berdilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay, javob xati ham keldi. Men ko'zlarimga ishonmasdim. Maktabda shunday yozilgan edi:

«Aziz qizalog'im, Zilola! Menga taqdim etgan go'zal she'ring va «Onajonimga sovg'a» nomli kitobingni katta qiziqish bilan o'qib chiqdim. Murg'ak yuragingda shu yurtga daxldorlik, chinakam vatanparvarlik, cheksiz sadoqat va muhabbat tuyg'ulari jo'sh urib turganini his qilib, juda mamnun bo'ldim».

Shundan so'ng, meni viloyatimizdagi Nurafshon shahrida Yoshlar kuni munosabati bilan ochilgan Yoshlar markazidagi tadbirga taklif qilishdi. Bilasizmi, u yerda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov Yurtboshimizning menga yo'llagan javob maktubini o'qib eshittirdi. Bundan tashqari, kompyuter, televizor, planshet va 52 ta kitobdan iborat Prezident bobomning sovg'alarini topshirishganida barcha menga havas qildi. She'rimda yozganimday, men yana baland ovozda aytgim keladi...



**Men esa hamon ko'zlarimga ishonmay onajonimni quchoqlab oldim. Quchoq'im gullarga, yuragim quvunchga to'lib ketdi, bu kun!**

**Men, Zilola qizingiz, Dildan va'da beraman. Jon elim xizmatiga, Hamisha shay turaman.**

## - YURTIMNING MARD O'G'LONI BO'LAMAN, -

deydi Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 1-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatining 9-sinf o'quvchisi, «Mard o'g'lon» Davlat mukofoti sohibi Doniyor ISMOILOV:

– 2016–2017-o'quv yilida Hindistonda o'tkazilgan matematika fani bo'yicha Xalqaro olimpiadada oltin medalni qo'lga kiritib, ona yurtimizga qaytganimda, aeroportda bizni kutib olishganida ich-ichimdan tuygan hayajon hissi hamon zavq beradi qalbmga. O'shanda biz bolalikdan havas qilgan mashhur insonlar kabi Vatanimiz dovrog'ini olamga yoyish o'z qo'limizda ekanligini tushunganman. O'sha kuni respublika bolalar va o'smirlarining «Tong yulduzi» gazetasiga intervyu berganim yodimda. Bu quvunch va hayajonlar, e'tibor-u e'zozlar menga kuch, g'ayrat bag'ishladi. Yanada ko'proq o'qib-o'rganishga, bilim olishga kirishdim. 2017–2018-o'quv yilida Innovatsion olimpiadaning respublika bosqichida birinchi o'rinni egalladim. Shu yili Bolgariya davlatining Burgas shahrida bo'lib o'tgan matematika fani bo'yicha Xalqaro olimpiadada ham menga oltin medal nasib etdi. O'tgan yili Ozarbayjon Respublikasining Boku shahrida bo'lib o'tgan aniq fanlar olimpiadasida ham muvaffaqiyatga erishdim. Ko'rib turganingizday, intilgan inson borki, muvaffaqiyatlarga erishib, ilm cho'qqilarini zabt etaverar ekan. Menga esa bularning bari ertakdek tuyuladi. Ya'ni, qahramonlar hamisha ulug' martabalariga erishib, murodiga yetganday. Aslida, hayotda ham shunday ekan. Bu haqiqatni anglaganim sari odimlarim dadillashib, maqsadlarim oydinlashaverdi.

# KONSEPSIYA

## Xalq ta'limi tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi


Bugun o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati, intellektual salohiyatini sifat jihatidan yuqori darajaga olib chiqish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Siz aziz o'g'ill-qizlarning mustahkam bilim olishingiz, hunar egallashingiz va sport bilan muntazam shug'ullanishingiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida bo'lib o'tgan brifingda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov ishtirok etdi. Unda Prezidentimizning 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi»ni tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni mazmun-mohiyati va uning ijrosi mavzusi yuzasidan fikr yuritildi. Brifingda Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari PISA, ya'ni o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini baholash reytingida 30 ta ilg'or mamlakat qatoriga kirish,

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, ta'lim sifatini yangilash va professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish kabi 9 ta asosiy yo'nalish

lish hamda 48 ta maqsadli ko'rsatkich bo'yicha bajarilgan va bajarilishi ko'zda tutilgan masalalar muhokama qilindi. Ayniqsa, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish qismi haqida Sherzod Shermatov fikr yuritir ekan, 5 ta tashabbusni Respublikamizning barcha hududlarida joriy etish rejasini alohida ta'kidlab o'tdi. Shuningdek:

- robototexnika, axborot texnologiyalari va dasturlash kabi zamonaviy to'garaklarni tashkil etish;
- o'quvchilarni san'at yo'nalishidagi to'garaklarga jalb etish;
- muntazam sport turlari bilan shug'ullanishga erishish;
- barcha maktablarni sport jihozlari bilan ta'minlash, eskirganlarini yangilash;
- umumta'lim maktablarida yoshlar teatr-studiyalarini tashkil etish;
- maktablarda kitobxonlar sonini oshirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Keng jamoatchilikning Xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi fikri muntazam tahlil qilinmoqda. Bu boradagi siz aziz o'quvchilar, muhtaram ustozlarning taklif va mulohazalaringiz bo'lsa, tahririyatimizga murojaat eting.



**Yaqinda Yevropa Ittifoqining Toshkentdagi nodavlat tashkiloti va Ekomaktab rahbari Natalya Shivaldovaning sa'y-harakati bilan yoshlar uchun daryo suvlarini tahlil qilish bo'yicha ekspeditsiya tashkil etildi. 23 nafar o'g'il-qizlardan iborat bo'lgan mazkur ekspeditsiya Chotqol tog' tizmalari bo'ylab piyoda sayohatdan boshlandi.**

# EKSPEDITSIYA YO'LGA CHIQDI


Bugungi sayohatimizda suvning kelib chiqishi va unga nisbatan odamlarning munosabatini o'rgandik.

«O'zbekistonning qishloq joylarida suv resurslarini barqaror boshqarish» dasturi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi suvning qariyb 90 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga yo'naltirilgan ekan. Shuningdek, qishloq xo'jaligida suvni tejash borasida mazkur dastur yangi texnologiyalarni taklif etmoqda.



Masalan, qishloq xo'jaligida yangi gidrogel texnologiyasidan foydalanish suvni tejashga, o'simliklar, organizmlarning to'yinishiga yordam beradi.

Nafaqat qishloq xo'jaligida, balki uy sharoitida ham suvni tejash mumkin. Bir kishining bir kunda o'rtacha olganda chanqog'ini bosishi, gigiyena va sanitariya ehtiyojlarini uchun ishlatiladigan suvi 50 litrni tashkil qiladi. Suvni hurmat qilmasak, unga e'tiborsizlik qilib har xil chiqindilarni tashlasak,



nafaqat suvni, balki, o'z hayotimizni ham zaharlagan bo'lamiz. Mana, sizga oddiygina misol: tish yuvayotganimizda, sharillab oqib turgan suvni o'chirmaymiz. Kerakli suvni idishga olib, suv jo'mragini o'chirib qo'yishimiz mumkin. Bu usul suvni tejashga yordam beradi.

– Yurtimizdagi eng arzon tabiiy iste'mol mahsuloti bu suv hisoblanadi. Masalan, Yevropa davlatlarining biri – Germaniyada bir kubometr suv 4 yevro turadi. Endi hisoblab ko'ramiz: bizning O'zbekiston so'miga o'g'irganda, bu mablag' o'rtacha 40 ming so'mni tashkil etadi, – deydi UzWaterAware loyihasi xodimi Yekaterina Ustinenko. – O'zbekistonda esa bir kubometr suv o'rtacha hisobda 615 so'mni tashkil etadi. Bu mablag' hisoblagich bo'yicha to'lov tizimidir.

Ekspeditsiya koordinatorlari piyoda sayohat davomida suv haqida juda ko'p ma'lumotlar berishdi. Bundan tashqari, Chotqol tog' tizmalari ostida paydo bo'lib, jilg'alanib oquvchi buloqlar suvidan namuna uchun shaffof idishga olindi. Ana shu jilg'alar bir-birlariga qo'shila-qo'shila daryo hosil bo'ladigan joylarni ko'rdik. Shu daryolardan biri bu Chotqol daryosidir. Chorvoq suv omboriga Pskom, Ko'ksuv va Chotqol daryolari kelib qo'shiladi.

Chotqol daryosining boshlanish jilg'alari Qirg'iziston hududidan oqib keladi. Ekspeditsiya davomida Chirchiq daryosining 4 ta daryo qo'shilishi natijasida hosil bo'lishiga guvoh bo'ldik. Bular: Chotqol, Ko'ksuv, Pskom va Ugom daryolaridir. Yo'l bo'yi G'azalkent va Chirchiq shaharlari orqali oqib kelgan Chirchiq daryosining suvidan boshqa bir shaffof idishga namuna oldik. Jilg'alardan olingan suvga qaraganda ikki shahar bosib o'tgan daryoning suvi anchagina loyqa edi. Bunga sabab, odamlarning e'tiborsizligi va suvga bo'lgan hurmatsizligidir.

Suv – hayot manbai. Bizning e'tiborsizligimiz tufayli ona tabiat, hayvonot olami aziyat chekmasligi kerak. Suvdan oqilona foydalanishni har kim o'zidan boshlasin. Shunda yurtimiz kelajagi porloq bo'ladi.

**Zeboxon SAIDOVA,**  
ekspeditsiya a'zosi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 314-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**Men Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi tog'lar bilan tutashib ketgan Samoq qishlog'ida yashayman. Qishlog'imiz o'zining ajib tabiati va o'tmishiga ega. Rivoyat qilishlaricha, Hisor tog' tizmalarining quyi qismida joylashgan bu so'lim go'shada bir kuni uch otlig' tunab qoladi.**

## MEN UCHUN BAXT NIMA?

Tongda atrofda bog'rog'lar, sharqiragan daryoni ko'rgan yo'lovchilar «Bu yerlarga bir ravot solmoq kerak ekan», de-yishadi. Shunday qilib, ikki qavatli ravot solingan bu joy yo'lovchilar uchun qo'nim maskaniga aylanadi. «Ravot» forscha so'z bo'lib, «Obod qo'nim» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik bu yerlarda uylar ham quriladi. Uy solmoq so'zidan esa Solmoq qishlog'ining nomi kelib chiqadi. Vaqt o'tib, qishloqning nomi Samoq bo'lib ketgani ma'lum. Bu qishloqda asrimiz boshlarida qad ko'targan Jome masjidi 1970-yillarda buzilib ketgan ekan.

Bugun bu so'lim qishloqdan sayyohlarning qadami uzilmaydi. Uning sirli tabiatidan hamon barcha bahra oladi.

Men har kun saharda qo'y-qo'zilarimizni uyurga qo'shish uchun dalaga haydayman. Shu paytda tong otishini kuzatish maqsadida Qurvontepaga chiqaman. Baland cho'qqilar ortidan ko'tarilib kelayotgan quyoshning ilk shu'lalari teraklar yaproqlarida mavjlanadi. Borliqqa yoyilayotgan ajib rangni hali hech kim kashf etmagandek, go'yo. Bu go'zallikni ko'ra olish menga-da nasib etgan-u, men o'zimni eng baxtli insondek his qilaman shu dam. Men bejizga baxt so'zini oddiygina qishlog'im bilan bog'lamadim. Zero, Vatanim uzra otayotgan har bir tongni har kuni omonlikda kuzatish men uchun – baxt!

**Dilshodbek RAHMATULLAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## YOSH IJODKORLAR KENGASHI

**Yoshlarni har jihatdan yetuk qilib voyaga yetkazish, iqtidorlarini yuzaga chiqarish, ijodini qo'llab-quvvatlash bugungi kun talabidir.**

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan 5 muhim tashabbus doirasida Samarqandda yosh ijodkorlar Kengashi tashkil etildi. Nazm, nasr, jurnalistika kabi yo'nalishlardan iborat Kengash 500 nafar ijodkor yoshlarni birlashtirdi.

Kengashning ochilishiga bag'ishlangan marosimda Samarqand yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari Zuhrabegim Eshonqulova, filologiya fanlari doktori Adurahim Soliyev kabi ustoz ijodkorlar ishtirok etishdi.

– Bu Kengash viloyatimiz yoshlari uchun haqiqiy ijodiy muhit yaratib berdi, – deydi Samarqand yosh ijodkorlar Kengashi raisi Mohinisi Boboqulova.

Tadbir so'ngida bir guruh ijodkorlar viloyat Yoshlar ittifoqi tomonidan faxriy yorliq hamda kitoblarni taqdirlandi.

Biz yosh qalamkashlar ham bunday e'tiborga, g'amxo'rliklarga munosib javob qaytarishga, mag'zi to'q asarlar yaratishga harakat qilamiz.

**Abbos SHODMONQULOV,**  
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 104-umumta'lim maktabi o'quvchisi

# MUTOLAA SHIORIMIZ BO'LSIN!

Kitob insoniyatni ezgulik sari boshlovchi eng yorug' yo'ldir. Bugungi kunda kitobxonlik shiori ostida mamlakatimizda tashkil etilayotgan tadbirlar, tanlov va loyihalar zamirida ham aynan ana shu yorug' yo'l ko'zda tutilgan bo'lsa, ajab emas. Xususan, 2018-yilda Prezidentimizning «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlari tashkil etish to'g'risida»gi Qarori qabul qilinishi mamlakatimizning chekka tumanlari va qishloqlarini ham qamrab oldi. Shu bois turli ta'lim markazlarida buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz hayoti va ijodini o'rganish maqsadida loyiha va tanlovlarning tashkil etilishi yoshlarni quvontirmoqda.

Shu jumladan, bizning maktabda ham Kitob yarmarkalari tashkil etilib «Buyuk ajdodlar

izdoshiman»,

«Siz nima maqsadda kitob o'qiyasiz?»,

«Kitobxonlik eng ezgu shiorimiz» loyihasi doirasida

turli kitobxonlik tanlovlari, so'rovnomalar o'tkazilmoqda. Kuni kecha maktabda tashkil etilgan «Yangi asr avlodi» to'garagida ham loyiha doirasida «Eng yaxshi kitobxon», «Qomusiy asarlar bilimdoni», «Ma'rifiy asarlar bilimdoni» tanlovlari bo'lib o'tdi.

Unda eng kitobxon o'quvchilar saralanib, taqdirlandi.

Quyida siz loyiha g'oliblarining taassurotlaridan bahramand bo'lasiz.



Madina BAXSHILLOEVA,  
Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi  
23-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim  
maktabining «Yangi asr avlodi» to'garagi  
rahbari



## ILMLARNING KONIDIR

Qalbga bilim nurlarin sochar,  
Xazinalar tomon yo'l ochar.  
Bilimsizlar kitobdan qochar,  
Bu kitobdir, bu kitob!

Ilmlarning konidir,  
Mazmunlar makonidir,  
Bilimlar maydonidir,  
Bu kitobdir, bu kitob!

Mohinabonu TOSHBOLTAYEVA,  
3-sinf o'quvchisi

## NEGA KITOB O'QIYMIZ?

Insonlar nega kitob o'qishadi? Boisi, kitob insonning ruhiyatini poklaydi, ma'nan ulg'aytiradi. U eng sadoqatli, eng yaqin do'st. U zulmatda ziyo, sahroda suv, yomg'irda soyabon tutuvchi kuch.

Ey, do'stim, o'ylab ko'r, kitob bo'lmasa inson o'zligini anglay olarmidi?! Tarixni bilarmidi? Tarix ham aynan mana shu qo'lyozmalar, kitoblar orqali yetib kelgan-kul! Uni varaqlaganing sari yuragingga huzur-halovat inadi. Men kitobxonlar tanlovida «Qomusiy asarlar bilimdoni» deb topildim. Al-Buxoriy, Zamaxshariy, Xorazmiy, Farobiy kabi olimlar hayoti va ijodini o'rganish meni faqat ezgulik sari yetakladi.

Sabina  
CHORIYEVA,  
9-sinf o'quvchisi

Har kimning o'z qahramoni bor: ba'zilar bu qahramonni hayotdan, ba'zilar esa kitobdan oladi.

Men ham o'z qahramonimni kitobdan topganman. Sevimli qahramonim meni, albatta, ezgulikka yetaklashiga ishonaman! Men Chingiz Aytmatov, Abay, Mirtemir, O'tkir Hoshimov asarlarini sevib o'qiyman. Bu asarlarni qunt bilan o'qiganim bugungi tanlovda menga qo'l keldi.

Sitora XOLOVA,  
10-sinf o'quvchisi

Kitob misoli nurlu, sirlu dunyo. Bu dunyoga kirib qolgan inson uni aslo tark eta olmaydi. Menda ham shu holat yuz berdi. Ilgari kitobni faqat zarurat yuzasidan o'qir edim. Ammo respublikamizda o'tkazilgan «Yosh kitobxon» tanlovini ko'rgach, kitobga bo'lgan munosabatim tamomila o'zgardi va ko'p kitob o'qish sevimli mashg'ulotimga aylandi va meni «Yosh kitobxon» tanlovining 4-mavsumiga qatnashish sari undadi. Bu tanlovda men avtomobil yutish yoki mashhur bo'lish uchun emas, balki o'z bilimlarimni sinash va yangi bilimlarni egallash uchun ishtirok etmoqchiman!

Svetlana  
XOLOVA,  
11-sinf o'quvchisi



Kitob bu inson hayotini bezovchi bir xilqat. Undagi etaklar, she'rilar xuddi hayotga o'xshaydi. Chunki hayotda mashaqqat, baxt, yengilish, g'olib bo'lish bor!

Kitob o'qish uchun mashaqqat bilan harf tanish lozim. Kitobdan biz sinovlarni qanday

yengib o'tishni o'rganamiz. Shoyad, kitob o'qib Zulfiya, Uvaysiydek shoirlar bo'lib yetishsak.

Bilim xuddi poyezd kabidir. Agar biz vaqtda bilim olmasak, poyezd o'tib ketadi. Bu poyezdning qaytishi esa dargumon...

Nazokat BOBOQULOVA,  
6-sinf o'quvchisi

# QAHRAMONNING «PARVOZ ZAVQI»

«Havas» oilaviy guruhi haqida gazetamizda ko'p bora o'qigansiz. Bugungi kunda Qahramon va Dostonning, Shahnaza-yu Robiyaxonning muxlislari nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda kun sayin ortib borayotgani sir emas.



Kuni kecha poytaxtimizdagi Kompozitorlar uyushmasida «Havas»ning yetakchi a'zosi – Qahramon G'ulomjonovning «Parvoz zavqi» nomli ilk kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.

– Qahramon iste'dodli va tinib-tinchimas ijodkorlardan. U o'zbek va jahon musiqa yo'nalishlarida birday ijod qilmoqda. Uning kuylarini nafaqat yurtdoshlarimiz, balki chet mamlakatlardagi musiqa ixlosmandlari ham katta qiziqish bilan kutib olmoqdalar. Qahramonning bu ilk kitobi musiqa san'atiga kirib kelayotgan yosh iste'dodlarga ajoyib qo'llanma bo'lishiga ishonaman, – deydi O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Rustam Abdullayev.

Qahramonning o'zi esa kitob haqida quyidagicha fikr bildirdi: – «Parvoz zavqi» to'plamini nashr etishdan maqsadim, shu vaqtgacha bo'lgan ijodiy faoliyatimni sarhisob qilish, uni musiqa jamoatchiligi, ijrochilari e'tiboriga havola etishdir. Albatta, barining zamirida esa ona Vatanimiz va ustozlarimizning bizga bo'lgan ishonchini oqlash yotadi.

Chindan ham ustoz ta'kidlaganlaridek, Qahramon musiqa ilmini teran anglagan ijodkor yoshlardan biri. Yosh iste'dod sohibi musiqa olamiga ilk qadam qo'ygan chog'laridanoq ustozlari mehrini qozondi. U Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan

musiqa akademik litseyida ustoz Guljahon Hasanovadan fortepiano chalish sirlarini o'rganib, qator Respublika hamda xalqaro ko'rik-tanlovlarda ishtirok etgan. 2012-yilda Fransiyaning Parij shahrida Nikolay Rubinshteyn nomidagi XI xalqaro pianinotchilar ko'rik-tanlovida ishtirok etib, 1-o'ringa loyiq deb topilgan. Shundan so'ng, ijodiy parvoz yanada yuksalib, «Havas» guruhi bilan Hindistonning Dehli, Agra, Mumbay, Hapur shaharlarida bo'lib, ijodiy uchrashuv va xayriya konsertlarini o'tkazdi.

2019-yilda Hindiston tashqi ishlar vaziri Sushma Svaraj Qahramonning Maxatma Gandining

150 yilligiga bag'ishlab kuylagan «Veyshnava Jana Tu» qo'shig'i uchun tashakkurnoma bilan taqdirlandi. Qahramonning ijodini hattoki Hindiston Bosh Vaziri Narendra Modi ham, o'zining «Twitter»dagi sahifasida yuksak baholadi.

Musiqa chegara bilmaydi, millat tanlamaydi. Qahramon va «Havas» guruhi xalqimiz faxridir. Ularning yurtimiz san'ati dovru'g'ini yoyish uchun tinimsiz izlanishlari, mehnatlari, albatta, diqqatga sazovor. Guruhning yosh ijrochilari Dostonbek hamda Robiyaxon ham o'z aka va opalari izlaridan dadil odimlamoqdalar.

MUHAMMADSHARIF

## Lesson 27

### INSPIRING WATER FOUNTAINS

There are five of the most inspiring fountains in the world!

### THE DIFFERENCE BETWEEN SEE SOMEBODY DO AND SEE SOMEBODY DOING

The simple verb used to describe one complete action.

e.g. Did you see her do her homework? (Did you see her complete her homework?)

The -ing form describes an incomplete part of an action.

e.g. Did you see her doing her homework? (Did you see her working on her homework even though it was not finished?)


#### Choose the correct form of verb.

1. I saw Zilola \_\_\_\_\_ (wait) for a bus.
2. I have never seen her \_\_\_\_\_ (dance).
3. Teacher did not hear him \_\_\_\_\_ (come) in.
4. Did you notice anyone \_\_\_\_\_ (go) out.



5. Listen to the birds \_\_\_\_\_ (sing).
6. I found my brother in his room writing his letter.
7. He saw a robber \_\_\_\_\_ (fall) off the wall.
8. Can you smell something \_\_\_\_\_ (burn)?


M. FAYZULLAYEV



tain is located in Hyde Park, in central Sydney. The design of the fountain is a mixture of Greek and Roman influences that features the god Apollo encircled by other mythical beings that spray water to the delight of the park visitors.



present a light and water show every 15 to 30 minutes. Before the water show begins the nozzles break the water surface and the Bellagio hotel structure changes



1. **The Fountain of Wealth (Singapore).** The largest fountain in the world is The Fountain of Wealth located in Singapore. The bronze ring of the fountain is designed based on the Hindu Mandala, meaning universe and is a symbolic representation of the oneness in spirit and unity and further symbolizes the equality and harmony of all races and religions in Singapore.

2. **The Archibald Fountain (Sydney, Australia).** The Archibald Fountain, properly called the J.F. Archibald Memorial Fountain



3. **The Nations Friendship Fountain (Moscow, Russia).** The Nations Friendship Fountain is decorated with 16 gold-plated statues representing former republics of the USSR.

4. **Bellagio Fountains (Las-Vegas, USA).** These Fountains are choreographed to various pieces of music and



5. **The Burj Khalifa Fountain (Dubai, UAE).** Located on the man-made Burj Khalifa lake in Dubai, this fountain is one of the most spectacular sights to see in a city full of amazing sights. The water jets can shoot up 150 meters in the air.

Internet source



**ORZU**

Orzum juda katta,  
Yetuk inson bo'laman.  
Bir kun kelib, albatta,  
Men shoira bo'laman.

Qancha sinov bo'lsa ham,  
Men ularni yengaman.  
Qunt va irodam bilan -  
Maqsadimga yetaman.

Zulfiyaxonim kabi  
Men shoira bo'laman.  
Bu hayotda maqsadim -  
Ulug' inson bo'laman.

**Sabrina SHERQOBILOVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
21-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**BOBOJONIM**

Bobom kelsa uyimizga,  
Juda xursand bo'laman.  
Yozgan she'rlarim o'qib,  
Quvonchlarga to'laman.

Qo'llariga suv quyib,  
Duosini olaman.  
Bobojonim ketsalar,  
Xafa bo'lib qolaman.

**Gulsevar HAMDULLAYEVA,**  
Samarqand viloyati, Kat-  
taqo'rg'on tumanidagi  
21-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi

**QADAMINGIZ QUTLUG'  
BO'LSIN, TENGDOSHLAR**

Zamon o'zgaroqda tez sur'at bilan,  
Yetmoqda bariga ulkan bardoshlar.  
O'zligini anglab qo'ymoqda qadam,  
Kelajakni barpo etmoqda yoshlar.

O'syapti barkamol, sog'lom va bardam,  
Bellashib chiniqar, pishar tengdoshlar.  
Ilm pog'onasin egallab shahdam,  
Kelajakni barpo etmoqda yoshlar.

Barcha loyihalar insonlar uchun,  
Yangi ixtirolar, kashfiyotlar ham.  
Taraqqiyot sari bosar birma-bir,  
Qadamingiz qutlug' bo'lsin, tengdoshlar.

**Mohichehra ABDURASULOVA,**  
Jizzax viloyati, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va  
adabiyot fanlari chuqurlashtirib o'rgatishga ixtisoslashtirilgan  
maktab-internati o'quvchisi



**KAMCHILIGIMNI TAN OLDIM**



Sindosh do'stimning ismi Oybek.  
U juda rostgo'y bola. Uy vazifasini  
bajarmagan kuni do'stlaridan ko'chirib  
oladi. Lekin ustoz, «Kim bugun uyga  
vazifasini bajarmadi?» deb so'rasalar,  
Oybek ham o'rnidan turadi. Ustoz:  
- Nega vazifani bajarmading? -  
desalar, uxlab qolibman, ustoz, deb  
to'g'risini aytadi. Muallim daftarlarni  
tekshirganlarida uyga vazifani bajargan  
chiqadi. Nega menga bajarmadim ded-  
ding, desalar, axir do'stimdan ko'chirib  
olgan edim, o'zim mehnat qilmadim-ku,



deb aybini ochiq tan oladi. Men esa  
ustozga ko'pincha yolg'on bahona-  
lar to'qirdim. Oybekka havas qilib,  
undan ibrat olib, hammamiz to'g'ri-  
so'z bo'lishga o'rgandik. Asosiysi,  
ustozlarimiz bergan topshiriqni puxta  
bajaradigan bo'ldik.

**Samariddin QODIROV,**  
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi  
326-umumta'lim maktabining 4-«A»  
sinf o'quvchisi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

**OTAMNING DO'STI**

Matrayimga qo'ygan tashxisim shu edi. «Men  
nima deyman-u, qo'bizim nima deydi?» Bu  
maqol ham xuddi Matrayimga atalgan. Bo'rilar  
sardoriga qoyatosh yonida ro'para  
bo'ldik. Atrof jimib qoldi. Matrayim  
sekundant edi. Jang qanday yakun-  
lanishi noma'lum. Shoshilinch holat  
va yana she'r:

**Ustoz aytgan o'giti,  
Yodimga tushdi shu on.  
Qo'lqopimni yuzimga,  
Qilib oldim-ku qalqon.**

Ko'z urishtirish jangi boshlandi. Bo'ri-  
ning ko'zi qattiq bo'lishini bilsam-da,  
sinfda o'rtoqlarim bilan ko'z urishtirish  
o'ynaganimiz asqotdi. Nihoyat, bo'rilar  
sardorining toqati toq bo'lib, tishlarini  
g'ijirlata boshladi. Qandaydir bir ovoz  
qulog'im ostida pichirladi. «Fleshkam»  
ishga tushdi:

**Tishlarin g'ijirlatib,  
Qo'rqitmoqchi bo'ldi u.  
Payt poylardim qo'rqmasdan -  
«Fintim» ishga soldim-ku.**

Atrofimizni qurshab olgan bo'rilar  
bamaylixotir o'tirishardi. Menimcha,  
kurashimiz ularni qiziqtirib qo'ygandi.  
Sardor hujumga o'tdi. O'ng qo'l zarbasiga  
chap berdim. Yana zarba. Shu payt bo'rilar  
sardorining chap qulog'idagi halqaga ko'zim  
tushdi. Xayol surib qoldim. Chap qulog'im tomon-  
dan berilgan zarbadan so'ng hushimga keldim.  
Shoshmay tur, sardor, dedim-da, «yax-xu», deya  
bir osmonga sapchidim-da, bo'rilar sardorining  
jag'iga shunday musht tushirdimki, u uch-to'rt

qadam nariga uchib ketdi. Uchib borib, otamning  
oyoqlari tagiga «to'p» etib tushdi. She'riy bayoni:  
**Sakrab turib jag'iga,  
Boplab bir musht tushirdim.  
Matrayimning nazdida,  
Bo'ri hushin uchirdim.**

**MEN, MATRAYIM  
VA TAMTUMBOY**

(Hikoya)



Otam bo'rilar sardoriga tikilib qoldi. Bahaybat  
kurlang bo'ri o'rnidan turdi. Boshqa bo'rilar ham  
jim edi. Bo'rilar sardori mag'lubiyatini tan olmoqchi

**Bahrom AKBAROV, bolalar yozuvchisi**

bo'lib turgandi, otam unga qarab:  
- O'g'limning zarbasi qalay? - dedi.  
- Yomon emas, chidasa bo'ladi.  
- Otog'gil-da!

Bo'rilar sardori endi otamga tikilib  
qoldi. Nazarimda, bu gapda qandaydir  
ma'no bor edi.

- Akella? Nahotki meni tanima-  
ding?! Otam bo'rilar sardori qulog'idagi  
halqani tortib qo'ydi.

- Bahodir! Do'stim. Ko'rishgan  
vaqtimizni qara-ya! - bo'rilar sardori  
otam bilan quchoqlasha ketdi. Bo'rilarining tusi  
o'zgarib, qizil rangga aylanib qoldi.

Otam bo'rilar sardori bilan tanishligi meni  
quvontirdi. «Ur-re» deb qichqirib yubordim  
shodlanib. Shu payt...

**Shu payt boshim gursillab,  
Bir narsaga urildi.  
Boshdagi do'ppim esa,  
O'ng tomonga surildi.**

Ko'zim yarq etib ochildi. Supadan pastga  
ag'darilgandim. Yonimda turgan chovgum  
ko'zimga bo'rining kallasi bo'lib ko'rindi.  
Ko'zimni ochib-yumdim. Kimdir gapira  
boshladi:

- Diyor! Diyorbek! Maktabga borasanmi?

Bu Matrayimning ovozi edi. Otam bo'rilar  
sardori bilan qanday tanish edi? Buni keyinroq  
bilib olarman. Hozircha sizga aytmoqchi bo'lgan  
voqeam shu. Erinmay o'qib chiqqaningiz uchun  
Sizlarga minnatdorchilik bildiraman. Bu lofmidu,  
tushmidu yoki hikoya, qanday qabul qilish o'zin-  
gizga havola. Siz bilan esa xayrlashmayman.  
Ha, aytgandek, Jo'rabek bu adabiy taxallusim.  
Yana uchrashguncha!

(Davomi bor)



## BESH TASHABBUS JAM BO'LDI

**Qay kasb etsang ixtiyor, Besh tashabbus senga yor. Buyuk maqsad ustuvor, Shavkatli yurtboshing bor.**

Ushbu go'zal shior asosida poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida faoliyat olib borayotgan sog'lomlashtirish maydonchasida ajoyib tadbir o'tkazildi. Unda O'zbekiston Mudofaa vazirligining harbiy qism serjantlari ishtirok etishdi. Tadbir davomida bolajonlar o'qigan kitoblari haqida so'zlab, shaxmat-shashka, tennis bo'yicha musobaqalarda faol ishtirok etishdi. Asfaltga rasmlar chizib, musavvirlilik qobiliyatlarini namoyish qilishdi.

o'tdi, — deydi serjant Hilola Qodirova. — Kapitan Muhiddin Egamov, mayor Jasur Nurmuhammedov va maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnora opa Ibragimova birgalikda turli yo'nalishlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarga kitoblar sovg'a qilishdi.

Shuningdek, serjantlar Oy-gul Kuljanbayeva, Dilshoda Rixsiyeva, Nodir Nigmonovga iqtidorli farzandlarni tarbiyalaganliklari uchun tashakkurnoma berildi.

Tadbir so'ngida esa o'quvchilar va harbiy qism yoshlar ittifoqi a'zolari tayyorlagan konsert dasturi namoyish etildi.

Mahmuda VALIYEVA

## «NAFOSAT»DA MAROQLI HORDIQ


**Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 12-Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan 147 nafar bolajonlar «Nafosat» yozgi sog'lomlashtirish oromgohida miriqib dam olishmoqda.**

Oromgohda bolalarni jismoniy chiniqtirish barobarida yurak va nafas olish tizimini yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi sport o'yinlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Yaqinda oromgohda Mehribonlik uyining Yoshlar tashkiloti yetakchisi J.Abdubannonov shahar Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda «Asragin dunyoni» shiori ostida tadbir tashkillashtirdi.

«Mardlar» nomli 2-guruh tarbiyalanuvchisi Samandar Imomaliyev shaxmat-shashka bahslarida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Uning do'sti Tohir Karimov esa rasm chizish tanlovida 1-o'rinni egalladi. «Begoyim» nomli 1-guruh tarbiyalanuvchisi Sarvinoxon Akramova raqs, Shahloxon Alimatova esa kitobxonlik tanlovida g'olib bo'ldi. G'oliblarga sovg'alar ulashildi.

Tadbir yakunida Mehribonlik uyining «Sarvigul» raqs dastasi qizlari go'zal, jozibador raqslari bilan barchani xushnud etishdi.



## G'OLIBLAR SARALANDI

**Toshkent shahrida Yoshlar kuni munosabati bilan 5 km masofaga «Youth Day» shiori ostida ommaviy yugurish marafoni tashkil etildi.**



Toshkent shahar Jismoniy tarbiya va sport bosh boshqarmasi tomonidan tashkillashtirilgan mazkur marafonda poytaxtimizdagi bolalar va o'smirlar sport maktablari tarbiyalanuvchilari, ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari, «Milliy gvardiya» xodimlari, bir qator ko'ngilli tashkilot vakillari hamda poytaxt aholisi ishtirok etishdi.

Marafon natijalariga ko'ra, erkaklar o'rtasida Baxtiyor O'tkirov 1-o'rinni egalladi. Andrey Kulikov 2-, Xuslimardon Uskenov 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Ayollar o'rtasida Durdona Safarova 1-, Malika Usmonova 2-, Yasmina Xurramova 3-o'ringa loyiq topildi.

NURBEK

## SEVIMLI AKTYORIMIZ BILAN UCHRASHDIK

**Maktabimizdagi «G'uncha» sog'lomlashtirish maydonchasida o'ndan ziyod to'garaklar faoliyat yuritmoqda.**


Gulsum Hayrullayeva sportning yengil atletika turiga qiziqadi. Yugurish, gimnastika mashqlari uning jon-u dili. Muhsina Hamidxo'jayeva munchoqlardan gul tikadi, bir-biridan chiroyli rasmlar chizadi. Asal Ravshanxonova eng ko'p kitob o'qiydigan o'quvchi. Murodjon Dadaboyev esa Muxtabar Toshpo'latova va bosh bo'lgan drama to'garagiga qatnaydi. Yaqinda u «Zumrad va Qimmat» ertagida chol obrazini mahorat bilan ijro etib, barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

Yaqinda o'quvchilar G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'iga sayohatga borishdi. U yerda bolalar turli musobaqalarda qatnashib, saylgoh ma'muriyati tomonidan sovg'alar bilan taqdirlanishdi. Saylgohda sayr qilib yurgan O'zbekiston xalq artisti Rajab Adashev o'quvchilarimizga qarata: «Baxti bolaligingizga havasim kelyapti, sizlarni ko'rsam, yosharib ketaman. Shunday yurtda yashayotganimizning qadriga yetinglar, bolajonlarim», deya ularni duo qildi. Biz sevimli aktyorimiz bilan esdalik uchun suratga ham tushdik.

**Shahodat ABDULLAYEVA, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 114-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**




# HAFTA YULDUZLARI




## Karl LYUIS

KARL LYUIS (1961-yilning 1-iyulida Alabama shtatining Birmingem shahrida tug'ilgan) – amerikalik yengil atletikachi. 9 karra Olimpiya chempioni, 8 karra Jahon chempioni. Qatorasiga uch marotaba (1982-, 1983- va 1984-yillarda) dunyoning eng yaxshi yengil atletikachisi deb tan olingan. Muxlislari uni tezkorligi uchun «Shamol o'g'li» deb atashadi.



## Said «Sami» NASERI

SAID «SAMI» NASERI (1961-yilning 2-iyulida Parijda tug'ilgan) – kelib chiqishi barbar (Afrika shimolidagi qabila) bo'lgan taniqli fransuz aktyori, «Taksi» filmi va uning davomi sifatida ishlangan qismlarida bosh rolni ijro etganligi bilan butun dunyoga mashhur. «Sezar» mukofoti sovrindori.



## Tom KRUZ

Tom KRUZ (1962-yilning 3-iyulida Nyu-York shtatidagi Sirakys shahrida tug'ilgan) – amerikalik taniqli aktyor, kinorejissor, produser va ssenarist. «Oltin globus» mukofotining uch karra sohibi. Tom Kruz bizga «Uddalab bo'lmas topshiriq» («Mission: Impossible»), «So'nggi samuray» va boshqa filmlaridagi rollari bilan juda yaxshi tanish.



## Frunze MKRTCHYAN

Frunze Mushegovich MKRTCHYAN (1930-yilning 4-iyulida Armanistonning Leninakan shahrida tug'ilgan, 1993-yilning 29-dekabrda Yerevanda vafot etgan) – taniqli sovet va arman teatr hamda kinoaktyori, teatr rejissyori. So-biq ittifoq xalq artisti (1984-y). «Kavkaz asirasi» (1966-y), «Mimino» (1977-y), «Alibobo va qirq qaroqchi» (1979-y) va boshqa ko'plab kartinalardagi rollari bilan barchaning yodida qolgan.

Internet manbalari asosida Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

N	A	F						T	A	N	I	S	T	A
G	A	M						G	A	N	A	R	M	O
D	O	V						T	O	R	L	O	M	U
J	U	S						S	H	O	M	O	S	Q
O	F	T						N	A	K	D	A	O	B
L	A	Q						N	O	R	C	H	A	Q
B	I	R						R	A	K	Z	A	D	O
S	H	A	M	O	L	T	I	N	S	O	I	L	O	N
K	U	Y						R	I	X	A	T	A	K
L	A	V						G	A	N	S	H	A	L
B	O	Y						L	I	L	D	A	R	A
M	O	H						R	O	V	I	Q	R	I
O	R	D						B	O	B	K	A	A	R
N	A	Y						P	A	R	A	C	H	L
K	A	M						F	A	R	Z	A	A	R
S	H	A	R					T	O	B	K	A	P	I

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

**Muassis:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruz A DILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Qahramon QURONBOYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Sayyora QODIROVA

**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzili va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)  
Adadi – 6268  
Buyurtma – V 3575

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08